

O'ZBEKISTONDA DAVLAT TASHQI QARZI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH

Abdurazakova Nasiba Sultanovna¹

¹TAFU, "Moliya va buxgalteriya hisobi"

kafedrasida katta o'qituvchisi

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.10.2024

Revised: 18.10.2024

Accepted: 19.10.2024

KALIT SO'ZLAR:

Davlat, tashqi qarz,
byudjet, moliyalshtirish,
mamlakatlar to'lov
qobiliyati, yalpi ichki
mahsulot, oltin-valyuta
zahirasi, eksport hajmi,
qarz inqirozi.

Ushbu maqolada davlatning tashqi qarzi muammolari va uning mamlakat moliyaviy ahvoriga ta'siri ko'rib chiqiladi. Davlat tashqi qarzi va makroiqtisodiy beqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Tashqi qarzning milliy iqtisodiyotga ta'sirining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlangan.

KIRISH. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tashqi qarz va uni boshqarish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizga ma'lumki keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida rivojlanishning asosiy tendentsiyalaridan biri doimiy ravishda kuchayib borayotgan globallashtirish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashtirish iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish imkoniyatidir, shuningdek, u mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid manbaiga aylanishi mumkin. Jahonda tashqi qarz bilan bog'liq muammolar, asosan, byudjet defitsiti va inqirozli holatlar vujudga kelishi bilan yanada keskinlashmoqda. Jahonning ilmiy markazlari tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlardagi moliyaviy oqimlar pasayishi va davlatlar to'lov qobiliyati tushishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tashqi qarzni jalb etish mamlakatlar to'lov qobiliyati bilan bir qatorda geosiyosiy maydondagi vaziyat barqarorligi bilan bog'liqligi, davlat tashqi qarzining yuzaga kelishiga ta'sir eruvchi omillar tahlili, qarzni boshqarishga bo'lgan yondashuvlarni

takomillashtirish, mamlakatlarda yalpi qarzlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, yalpi ichki mahsulot, oltin-valyuta zahirasi, eksport hajmi va davlat byudjeti daromadlariga nisbatan ulushi nobarqarorligining keskinlashuvi kabi masalalarni o'rganishni taqozo etadi. O'zbekistonning zamonaviy jahon iqtisodiyotiga izchil integratsiyalashuvi jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi.

Keyingi yillarda tashqi qarz muammosi global miqyosda tus oldi. Davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatishning barqarorligi mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. O'zbekistonda davlat qarzi bilan bog'liq ko'rsatkichlar barqaror baholanayotgan bo'lsa-da, uning tarkibiy tahlilida ayrim murakkabliklar mavjud. Jumladan, davlat yalpi qarzida ichki manbalar ulushining kichikligi, ichki qarz tarkibida esa bitta jamg'arma ulushining kattaligi davlat obligatsiyalarining ahamiyatini pasaytirmoqda. Davlat ulushi bo'lgan korxonalarining qarzi esa yuqoriligacha qolmoqda. Davlat qarzining yuzaga kelishida alohida chegaraviy me'yorlarni amliyotga joriy etish, ichki bozorda davlat obligatsiyalarining qisqa va uzoq muddatli shakllarini joylashtirishda ishtirok etish qoidalarini takomillashtirish, davlat va hukumat kafolati berilishida mahalliy hokimiyatlar, xususi sektorlar uchun alohida mezonlarni shakllantirish kabi muammolarni hal etish zarurligi mazkur mavzuning hayotiy ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Qarz muammosini hal qilishning tabiati O'zbekistonning byudjet imkoniyatlarini, valyuta zaxiralarining holatini, natijada milliy valyutaning barqarorligini, foiz stavkalari darajasini, investitsiya muhitini va barcha segmentlarning xatti-harakatlarini belgilaydi. O'zbekistonda bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish asnosida davlat qarziga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonning mustaqil tarixida ilk bora yevroobligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi va shu orqali xorijiy mablag'larni jalb etishga erishildi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, davlat qarzi jalb etilishining asosiy omili iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirish, jumladan, hukumatning kafolatini amalda ko'rsatishdir. Davlat qarzi hukumat kafolati asosida mablag' jalb etilishi bilan nafaqat iqtisodiyot qo'llab - quvvatlanadi, balki davlatning bosh islohotchiligi o'zining aksini topadi. Davlat qarzini boshqarishdagi asosiy omil - bu uni qiymat yaratadigan tarmoqqa joylashtirish va iste'molni oshirishdan iborat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri iste'molga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Bizga ma'lumki, davlat qarzi tushunchasi bilan davlat byudjeti tushunchasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Birinchisida davlat qarzini tahlil qilishda fundamental vositalar bo'lgan bir qator byudjet tushunchalaridan foydalaniladi. Byudjet taqchilligi - bu davlat

byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyat hukumatlari xarajatlarni daromadlar bilan qoplay olmaydilar va natijada davlat byudjeti taqchilligiga duch kelishadi. Binobarin, davlat byudjetini shakllantirishdayoq hukumat mamlakat uchun maqbul miqdorda davlat qarzini ta'minlashi kerak. Qisqa va uzoq muddatli istiqbolda byudjet taqchilligining ichki iqtisodiyotga ta'sirini, shuningdek, byudjet taqchilligini moliyalashtirish yo'llarini hisobga olish majburiydir.

Zamonaviy sharoitda ko'plab mamlakatlar uchun davlat tashqi qarzining doimiy o'sib borishi bilan bog'liq muammolar byudjet taqchilligi va uni qoplash uchun ichki va tashqi moliyalashtirish manbalariga murojaat qilishning sababi hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda oqilona iqtisodiy siyosatning yo'qligi ijtimoiy moliyaviy majburiyatlarning haddan tashqari yuqori darajasiga olib keladi. Mamlakat hukumati byudjet taqchilligini moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalariga murojaat qilganda davlat qarzi ko'paya boshlaydi. Muammo shundaki, mamlakatlar ilgari o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni to'lash bilan birga, yangi qarzlarni ham amalga oshiradilar. Aksariyat hollarda mamlakat o'z majburiyatlarini to'lash uchun qo'shimcha kreditlarga murojaat qilishdan boshqa hech qanday imkoniyatga ega emas. Qarz inqirozi qarzdor mamlakat iqtisodiyotining ahvoli bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sishning past sur'atlari va davlat byudjetining keskin holati tufayli yuzaga keladi.

Davlat qarzdan samarali foydalanish istiqbollari

Hozirgi vaqtda "qarzning oshib ketishi" muammosiga bag'ishlangan nazariy yo'nalish paydo bo'ldi. Uning mohiyati: kreditorlar qarz oluvchi davlat kelajakda qarzni to'liq to'lay olmasligidan qo'rqishadi. Shu bilan birga, kreditorlarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlari o'rtasida ma'lum bir ziddiyat yuzaga keladi, bu esa qarz oluvchining yangi kreditlar olishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Har qanday davlat tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotganda tashqi iqtisodiy qarzni hosil qiladi, bu davlatning mamlakat norezidentlari oldidagi to'plangan qarzidir. Tashqi iqtisodiy qarzga quyidagilar kiradi:

- 1) mamlakatning xalqaro moliya tashkilotlari oldidagi tashqi iqtisodiy qarzi;
- 2) mamlakatning boshqa moliya institutlari oldidagi tashqi iqtisodiy qarzi;
- 3) xususiy kreditorlar oldidagi tashqi iqtisodiy qarz.

Iqtisodiy tizimi beqaror bo'lgan davlatning yalpi ichki mahsulotiga davlat tashqi qarzining ta'sirini aniqlash juda qiyin. Ta'sirni aniqlashdagi qiyinchilik qarz nazorati ostida bo'lmagan muammolar natijasida yuzaga keladigan tez-tez iqtisodiy tanazzul va inqirozlar

bilan bog'liq. Bu mamlakatlardagi bunday iqtisodiy ziddiyatlarning asosiy sababi tashqi qarz sifatida ko'rilmogda.

Ha, davlatning tashqi qarzlarini ma'lum darajada iqtisodiy rivojlanish uchun resurslarni oshiradi, lekin ayni paytda ularga xizmat ko'rsatishni (asosiy qarz va foizlarni to'lashni) ham talab qiladi. Xalqaro kreditning pul va moliyaviy shartlarini aniqlashda kreditor kreditga layoqatliligi (qarz oluvchining kredit olish qobiliyati) va to'lov qobiliyati (qarz oluvchining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq to'lash qobiliyati) dan kelib chiqadi. To'lov qobiliyati inqirozi yaqinlashayotganining belgisi davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar jadvalining buzilishi hisoblanadi.

Qarzdin samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning kuchli omiliga aylanishi, iqtisodiy tebranishlarni yumshatish va qo'shimcha moliyaviy resurslarni taqdim etishi mumkin. Mamlakatning xalqaro kapital bozoridagi barqaror mavqei va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi uning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda va yanada qulay shartlarda qo'shimcha investitsiya oqimini ta'minlamoqda. Qolaversa, uning valyutasiga ishonch ortadi va shu orqali tashqi

savdo aloqalari mustahkamlanadi. Biroq, tashqi qarz inqirozi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy xarakterdagi jiddiy salbiy omilga aylanishi mumkin. Davlat qarziga xizmat ko'rsatish uchun Respublika byudjetidan katta mablag'lar ajratiladi, buning natijasida milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlarga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish zarurati tug'iladi, bu esa oxir-oqibat aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi.

Nega O'zbekiston qarzi tez o'syapti?

Birinchidan, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko'lami doimo o'sib boruvchi xarakterga ega. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun davlatda 2 ta muqobil yechim mavjud: soliqlarni oshirish yoki tashqi qarz va investitsiya mablag'larini jalb qilish.

Soliqlarni oshirish istiqbolda iqtisodiyotni rivojlantirish rag'batlariga putur yetkazishi hisobga olinsa, ko'plab rivojlangan davlatlar ikkinchi yo'lni tanlashni afzal ko'rishadi. O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, hukumatga nisbatan asosiy savollar qarz mablag'larining oshib borayotgani bilan birga, jalb qilingan pulning samara bermayotgan va narxi qimmatlashtirilgan loyihalar uchun ishlatilishida bo'lyapti.

Ikkinchidan, Kovid va postkovid davri dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashqi qarz o'sishiga olib keldi. Xususan, ushbu omillar ta'sirida 2020 yilda qarz jalb qilish miqdori keskin oshganini (17,8 mlrd dollardan 23,4 mlrd dollarga) ko'rish mumkin.

Uchinchidan, davlat budjeti taqchilligining oshib borayotgani. 2022 yilda ushbu ko'rsatkich YaIMning 3,9 foizini yoki qariyb 35 trln so'mni tashkil etdi. 2023 yilda esa konsolidatsiyalangan budjet taqchilligi limiti YaIMga nisbatan 3 foizdan 5,5 foizgacha, yillik tashqi qarz limiti 4,5 mlrd dollardan 5,5 mlrd dollargacha ko'paytirildi.

Eslatib o'tamiz, shu yil may oyida S&P xalqaro kredit reyting agentligi O'zbekistonning suveren kredit reytingini "BB-" (barqaror kutilma) darajasida o'zgarishsiz qoldirgan edi. Agentlik O'zbekistonning tashqi qarzlari miqdori avvalgi prognozlarga qaraganda tezroq oshishi kutilayotganini qayd etgan.

Xulosa. Bizningcha davlat tashqi qarzlarni boshqarishda quyidagi takliflar amalda qo'llanilsa, samarali natijalarga erishish mumkin:

Birinchidan, davlat kafolati ostidagi tashqi qarz jalb etishning hozirgi tendensiyasi, ya'ni xususiy sektorga beriladigan davlat kafolatlarida qat'iy me'yorlarni belgilash hamda unga amal qilish;

Ikkinchidan, tashqi qarzda davlat ulushini kamaytirish. Bunga kelajakda davlat ulushi bo'lgan korxonalarni xususiy sektorga sotish orqali erishish mumkin bo'ladi, shu bilan birgalikda tashqi qarz mablag'larini vaqtida to'lamaslik xatarlari mavjud bo'lgan taqdirda, qarzdor tashkilotlarga alohida g'azna hisobvaraqlarini ochish orqali zarur mablag'larini ma'lum grafik asosida g'azna hisobvaraqlariag o'tkazib borish orqali oldindan tashqi qarz bo'yicha asosiy to'lov hamda foiz to'lovlarni jamlab borish;

Uchinchidan, mamlakat savdo balansida ijobiy qoldiqqa ega bo'lishiga erishish orqali tashqi qarzni arzon valyutalar orqali qaytarish imkoniyatiga erishish;

To'rtinchidan, tashqi qarz valyuta tarkibining o'zaro nisbatini mamlakat oltin-valyuta zaxirasidagi valyutalar nisbati bilan uyg'unlashtirish;

Beshinchidan, davlat tashqi qarzini boshqarishning har tomonlama mamlakat moliyaviy xavfsizligi hisobga olingan uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish hamda qarz olish

bilan bog'liq risk va xatarlar o'rtasidagi bog'liqlikni bashorat qilish mexanizmlarini avtomatlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A. Shernayev Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378. 2. A.A. Shernayev (2021). Strategik rivojlanish sharoitida mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Студенческий вестник, (20-14), 74-76.

3. А.А. Шернаев (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.

4. A.A. Shernayev (2021). Sog 'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari, Интернаука, (20-7), 58-60.